FARG‘ONA VILOYATI BANDLIK SHAKLLARI VA UNING HUDUDIY TAFOVUTLAR

Abduvaliyev Xayitboy Abdug‘aniyevich - Farg‘ona davlat universiteti geografiya kafedrasi dotsenti, g.f.d (DSc), dotsent.
Mirzatillayev Jumanazar Zokirjon o‘g‘li - Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi.

Annotatsiya. *Maqolada Farg‘ona viloyati mehnat resurslarining hozirgi holati viloyat statistika boshqarmasining 2010-2024-yillarga oid mehnat resurslari balansi, hududlar bo‘yicha iqtisodiy faol aholi, yosh tarkibi va ish haqi ma’lumotlari asosida tahlil qilingan. 2024-yilda viloyatda mehnat resurslari 2 143,3 ming kishini, iqtisodiy faol aholi 1 664,4 ming kishini, ishsizlik darajasi 6,0 foizni tashkil etgani aniqlangan bo‘lib, band aholining 44,9 foizi norasmiy sektorda, 10,4 foizi respublikadan tashqarida mehnat qilayotgani tahlillarda aniqlandi. Tumanlar kesimida norasmiy bandlik ulushi 13,5 foizdan (Farg‘ona shahri) 57,6 foizgacha (Buvayda tumani) farqlanishi asoslantirildi. Mehnat resurslaridan samarali foydalanish bo‘yicha hududiy takliflar ishlab chiqildi.*

Kalit so‘zlar: *mehnat resurslari, iqtisodiy faol aholi, bandlik, norasmiy bandlik, ishsizlik darajasi, mehnat migratsiyasi, demografik yuk, Farg‘ona viloyati.*

Kirish. Mehnat resurslari hududning ishlab chiqarish salohiyatini, aholi daromadlarini va ijtimoiy barqarorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Ularning soni, tarkibi va bandlik darajasi hududiy iqtisodiy siyosatni shakllantirishda birlamchi ko‘rsatkich sifatida qaraladi. Ayniqsa, aholi zich joylashgan va tabiiy o‘sish yuqori bo‘lgan hududlarda mehnat resurslaridan oqilona foydalanish masalasi alohida dolzarblik kasb etadi.

Farg‘ona viloyati O‘zbekistonning eng zich aholi yashaydigan hududlaridan biri hisoblanadi. 2026-yil 1-yanvar holatiga viloyat aholisi 4 223,0 ming kishini tashkil etgan bo‘lib, u aholi soni bo‘yicha respublikada Samarqand viloyatidan keyin ikkinchi o‘rinda turadi. Shu bilan birga, viloyat hududi atigi 6,76 ming km² ni tashkil etadi. Natijada har bir kvadrat kilometrga 317 nafar mehnat resursi to‘g‘ri keladi. Bu holat mehnat bozoriga doimiy bosim, norasmiy bandlik va tashqi mehnat migratsiyasining keng tarqalishiga sabab bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-avgustdagi PQ-366-son qarori bilan norasmiy bandlik ulushini qisqartirish va mehnat resurslari balansini zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirish vazifasi belgilangan [13]. Mazkur vazifani hududlar darajasida bajarish uchun har bir viloyat va tumanning mehnat resurslari holatini aniq statistik asosda baholash talab etiladi.

“Mehnat resurslari” atamasi ilmiy muomalaga XX asrning 20-yillarida akademik S.G. Strumilin tomonidan kiritilgan. U mehnat resurslarini jamiyatning mehnat salohiyatini ifodalovchi statistik tushuncha sifatida talqin qilgan [1]. Mazkur yondashuv rejali iqtisodiyot sharoitida resurslarni hisobga olish va taqsimlash ehtiyojidan kelib chiqqan. G‘arb iqtisodiy adabiyotida unga yaqin ma’noda “labour force” (ishchi kuchi) atamasi qo‘llaniladi. Biroq u torroq mazmunga ega bo‘lib, faqat iqtisodiy faol aholini, ya’ni bandlar va ish izlovchilarni qamrab oladi.

Mehnatning iqtisodiy rolini nazariy jihatdan klassik siyosiy iqtisod vakillari asoslagan. A. Smit mehnatni boylikning birlamchi manbai deb hisoblagan va mehnat taqsimotini iqtisodiy o‘sishning asosiy omili sifatida ko‘rsatgan. K. Marks esa “mehnat kuchi” tushunchasini kiritib, uni o‘ziga xos tovar sifatida tahlil qilgan. XX asrning ikkinchi yarmida T. Shults va G. Bekker inson kapitali nazariyasini ilgari surdilar [2]. Unga ko‘ra, ta’lim, malaka va sog‘liqqa kiritilgan investitsiyalar mehnat unumdorligini oshiruvchi asosiy omil hisoblanadi.

Zamonaviy fanda mehnat resurslari faqat miqdor jihatidan emas, sifat jihatidan ham baholanadi. T.I. Zaslavskaya bu ikki jihatning birligini “mehnat salohiyati” deb atagan [3]. Sifat ko‘rsatkichlariga ma’lumotlilik darajasi, kasbiy malaka, sog‘liq holati, raqamli ko‘nikmalar va mehnat motivatsiyasi kiradi. Bilimlar iqtisodiyoti sharoitida resursning sifati uning miqdoridan muhimroq omilga aylanib bormoqda.

O‘zbekiston statistika amaliyotida mehnat resurslari ikki guruhdan tashkil topadi: mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga layoqatli aholi hamda mehnatga layoqatli yoshdan tashqarida ishlayotgan o‘smirlar va pensionerlar. Mehnat resurslari balansi ularni iqtisodiy faol va iqtisodiy nofaol aholiga ajratadi. Iqtisodiy faol aholi o‘z navbatida bandlar va ishsizlardan iborat. Xalqaro mehnat tashkilotining 13-Xalqaro mehnat statistiklari konferensiyasi (1982) ta’rifiga ko‘ra, hisobot davrida kamida bir soat haq evaziga yoki o‘z xo‘jaligida daromad uchun ishlagan shaxs band hisoblanadi [4]. Mehnat resurslaridan foydalanish darajasi quyidagi asosiy nisbiy ko‘rsatkichlar orqali baholanadi:

iqtisodiy faollik darajasi;

ishsizlik darajasi;

norasmiy bandlik ulushi.

Bandlikni rasmiy va norasmiy turlarga ajratish hozirgi tahlilning markaziy masalasidir. Rasmiy bandlik mehnat shartnomasi, soliq va ijtimoiy sug‘urta tizimi bilan qamrab olingan faoliyatni bildiradi. Norasmiy bandlik esa davlat ro‘yxati va ijtimoiy himoyadan tashqarida kechadi. XMT ma’lumotlariga ko‘ra, dunyodagi band aholining 60 foizdan ortig‘i norasmiy iqtisodiyotda mehnat qiladi [5].

Ishsizlikning friksion, tuzilmaviy, siklik va mavsumiy turlari ajratiladi [6]. Agrar hududlarda mavsumiy va yashirin ishsizlik ustunlik qiladi. M. Fridman ta’kidlaganidek, to‘liq bandlik sharoitida ham ishsizlikning muayyan “tabiiy darajasi” saqlanib qoladi. K. Klark va J. Furastye nazariyasiga ko‘ra, iqtisodiyot rivojlanishi bilan bandlik qishloq xo‘jaligidan sanoat va xizmatlar sohasiga ko‘chib boradi.

Iqtisodiy geografiya nuqtai nazaridan mehnat resurslari hududlar kesimida turlicha zichlik, tarkib va sifat bilan namoyon bo‘ladi. Bu tafovutlar tabiiy-geografik, demografik, iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy omillar ta’sirida shakllanadi [7]. Farg‘ona vodiysi aholisi va mehnat resurslarining hududiy xususiyatlari R.B. Qodirov tomonidan maxsus monografiyada o‘rganilgan [8]. Shu bois mazkur maqolada viloyat mehnat resurslari tuman va shaharlar kesimida, eng so‘nggi rasmiy ma’lumotlar asosida tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning axborot bazasini Farg‘ona viloyati statistika boshqarmasining rasmiy ma’lumotlari tashkil etadi [9]. Jumladan, 2024-yil uchun shahar va tumanlar kesimidagi mehnat resurslari balansi, 2010-2024-yillardagi mehnat resurslarining iqtisodiy faol va nofaol aholi bo‘yicha taqsimlanishi, 2017-2024-yillarda hududlar bo‘yicha iqtisodiy faol aholi, bandlar va ishsizlar soni, 2016–2026-yillarda yosh guruhlari bo‘yicha doimiy aholi soni hamda 2024-2026-yillardagi o‘rtacha oylik ish haqi ma’lumotlaridan foydalanildi. 2023-2024-yillar ma’lumotlari statistika organi tomonidan dastlabki deb belgilangan.

Tahlilda statistik guruhlash, nisbiy va dinamik ko‘rsatkichlarni hisoblash, qiyosiy-geografik va jadval usullari qo‘llanildi. Har bir hudud uchun iqtisodiy faollik darajasi, rasmiy va norasmiy bandlik ulushlari, chetga ishlashga ketganlar ulushi va ishsizlik darajasi muallif tomonidan hisoblab chiqildi. Natijalar muallifning viloyat aholisi va mehnat bozoriga oid avvalgi tadqiqotlari bilan qiyoslandi [10; 11].

Tahlil va natijalar. 2024-yilda Farg‘ona viloyatida mehnat resurslari soni 2 143,3 ming kishini tashkil etdi. Bu 2010-yildagi 1 824,2 ming kishiga nisbatan 319,1 ming kishiga yoki 17,5 foizga ko‘p. Mehnat resurslari viloyat aholisining (2025-yil boshida 4 144,7 ming kishi) 51,7 foizini tashkil etadi. Ularning 59,0 foizi shaharlarda, 41,0 foizi qishloq joylarda istiqomat qiladi. 2010-yildan buyon qishloq hududlarining ulushi 39,1 foizdan 41,0 foizga oshgan, ya’ni mehnat resurslarining o‘sishi asosan qishloq joylar hisobiga ro‘y bermoqda. Viloyat mehnat resurslari balansining tarkibi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

Farg‘ona viloyati mehnat resurslari balansi, 2024-yil

Ko‘rsatkich	**Ming kishi**	**Ulushi, %**
Jami mehnat resurslari	2 143,3	100,0
mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga layoqatli aholi	2 130,8	99,4
ishlayotgan o‘smirlar va pensionerlar	12,5	0,6
Iqtisodiy faol aholi	1 664,4	77,7
bandlar, jami	1 563,9	94,0
rasmiy sektorda bandlar	699,1	44,7
norasmiy sektorda bandlar	701,5	44,9
respublikadan tashqariga ishlashga ketganlar	163,3	10,4
ishga joylashtirishga muhtojlar (ishsizlar)	100,5	6,0
Iqtisodiy nofaol aholi	478,9	22,3
ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta’lim olayotganlar	192,8	40,3
tug‘ruq ta’tilidagi yoki 2 yoshgacha bolasini parvarishlayotgan ayollar	240,5	50,2
ishlashni xohlamaydigan yoki darhol ishga kira olmaydiganlar	45,6	9,5

Manba: Farg‘ona viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblandi [9].

1-jadval ma’lumotlari viloyat mehnat bozorining uchta muhim xususiyatini ko‘rsatadi. Birinchidan, iqtisodiy faollik darajasi 77,7 foizni tashkil etadi. 2010-2024-yillarda iqtisodiy faol aholi 1 421,2 ming kishidan 1 664,4 ming kishiga (17,1 foiz) o‘sgan. Iqtisodiy nofaol aholi esa 403,0 ming kishidan 478,9 ming kishiga ko‘paygan. Nofaol aholining yarmidan ko‘pini bola parvarishi bilan band ayollar tashkil etadi. Bu ayollar bandligini kengaytirish viloyatdagi asosiy yashirin mehnat zaxirasi ekanini anglatadi.

Ikkinchidan, rasmiy va norasmiy sektorda bandlar soni deyarli teng: mos ravishda 699,1 va 701,5 ming kishi. Demak, viloyatda har ikki band kishidan biri mehnat shartnomasi va ijtimoiy sug‘urtadan tashqarida ishlamoqda. Bu ko‘rsatkich respublika bo‘yicha qayd etilgan 39,0 foizlik norasmiy bandlik darajasidan [12] sezilarli yuqori.

Uchinchidan, 163,3 ming kishi yoki har o‘n band kishidan biri respublikadan tashqarida mehnat qilmoqda. Tashqi mehnat migratsiyasi viloyat ichki mehnat bozoridagi bosimni yumshatuvchi muhim omil bo‘lib qolmoqda.

2020–2024-yillarda viloyatda bandlar soni 1 438,3 ming kishidan 1 563,9 ming kishiga, ya’ni 125,6 ming kishiga oshdi. Shu davrda ishsizlar soni 175,5 ming kishidan 100,5 ming kishiga yoki 42,7 foizga qisqardi. Pandemiya yilida 10,9 foizga yetgan ishsizlik darajasi 2024-yilda 6,0 foizgacha pasaydi. Muallifning avvalgi tadqiqotida keltirilgan 2025-yilgi dastlabki baholarga ko‘ra, bu ko‘rsatkich 4,9 foizgacha tushgan [11]. Biroq ishsizlikning qisqarishi ko‘p jihatdan norasmiy bandlik va o‘zini o‘zi band qilish shakllarining kengayishi hisobiga ro‘y bergan. Shu sababli ishsizlik darajasining o‘zi mehnat bozori holatini to‘liq aks ettirmaydi.

Viloyatning to‘rtta respublika tasarrufidagi shahri mehnat resurslarining 26,3 foizini jamlagan. Eng yirik mehnat resurslari Farg‘ona shahri (219,1 ming kishi), Qo‘qon shahri (161,8 ming), Quva (138,2 ming) va Marg‘ilon shahri (128,0 ming) hissasiga to‘g‘ri keladi. Eng kichik ko‘rsatkich eksklav joylashgan So‘x tumanida (45,0 ming kishi) qayd etilgan. Hududlar bo‘yicha bandlik shakllari va ishsizlik darajasi 2-jadvalda berilgan.

2-jadval.

Farg‘ona viloyati hududlarida mehnat resurslaridan foydalanish ko‘rsatkichlari, 2024-yil
(norasmiy bandlik ulushi bo‘yicha kamayish tartibida)

Hudud	Mehnat resurslari, ming kishi	Iqtisodiy faollik, %	Rasmiy sektor, bandlarga %	Norasmiy sektor, bandlarga %	Chetda ishlayotganlar, bandlarga %	Ishsizlik darajasi 2024, %	Ishsizlik darajasi 2020, %
Buvayda	122,3	78,0	34,2	57,6	8,3	6,5	11,2
Bag‘dod	119,2	79,3	37,3	54,1	8,6	6,0	11,1
Uchko‘prik	124,5	78,9	43,6	52,5	4,0	6,1	11,4
Qo‘shtepa	109,1	78,3	39,5	52,2	8,3	6,0	11,3
O‘zbekiston	121,5	79,6	35,8	51,3	13,0	6,5	11,3
Quva	138,2	80,7	34,4	51,1	14,6	6,1	10,7
Toshloq	111,8	80,8	34,4	49,7	15,9	6,1	11,2
Furqat	64,3	81,2	41,5	48,8	9,7	6,5	11,3
Yozyovon	64,7	80,2	42,0	47,6	10,4	6,3	11,5
Marg‘ilon sh.	128,0	77,7	40,0	47,6	12,4	5,8	10,6
Farg‘ona t.	116,4	77,3	37,4	47,0	15,6	6,1	11,0
Beshariq	121,0	79,4	39,5	43,8	16,7	6,1	11,0
Oltiariq	121,1	81,7	45,1	43,7	11,2	5,8	10,7
Qo‘qon sh.	161,8	72,6	53,8	42,9	3,4	5,6	10,3
Rishton	111,9	79,1	45,1	42,4	12,5	6,0	10,7
Dang‘ara	89,2	76,5	44,8	41,2	14,0	6,3	11,3
So‘x	45,0	77,6	46,6	40,8	12,5	6,5	11,5
Quvasoy sh.	54,0	80,2	47,6	40,3	12,1	5,9	10,4
Farg‘ona sh.	219,1	68,9	82,9	13,5	3,6	5,5	9,8
Viloyat b-cha	**2 143,3**	**77,7**	**44,7**	**44,9**	**10,4**	**6,0**	**10,9**

Farg‘ona viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblandi [9].

Jadvaldan ko‘rinadiki, bandlik shakllari bo‘yicha viloyat ichida keskin hududiy qutblanish mavjud. Farg‘ona shahrida band aholining 82,9 foizi rasmiy sektorda ishlaydi, norasmiy bandlik esa atigi 13,5 foizni tashkil etadi. Qo‘qon shahrida rasmiy bandlik 53,8 foizga teng. Qolgan tumanlarda rasmiy sektor ulushi 34–47 foiz oralig‘ida qolmoqda. Buvayda, Bag‘dod, Uchko‘prik, Qo‘shtepa, O‘zbekiston va Quva tumanlarida band aholining yarmidan ko‘pi norasmiy sektorda mehnat qiladi. Mazkur tumanlar viloyatning qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan, qishloq aholisi ulushi yuqori hududlaridir.

Tashqi mehnat migratsiyasi ham hududlar bo‘yicha notekis taqsimlangan. Chetga ishlashga ketganlar ulushi Beshariq (16,7%), Toshloq (15,9%), Farg‘ona tumani (15,6%), Quva (14,6%) va Dang‘ara (14,0%) tumanlarida eng yuqori. Qo‘qon (3,4%) va Farg‘ona (3,6%) shaharlarida, shuningdek Uchko‘prik tumanida (4,0%) bu ko‘rsatkich eng past. E’tiborlisi, Uchko‘prik tumanida migratsiya past bo‘lgani holda norasmiy bandlik yuqori (52,5%). Demak, mahalliy norasmiy mehnat bozori bu yerda tashqi migratsiyaning o‘rnini bosmoqda. Umuman olganda, Farg‘ona shahridan tashqari barcha hududlarda band aholining 52–66 foizi norasmiy sektorda yoki respublikadan tashqarida mehnat qilmoqda.

Ishsizlik darajasining hududiy tafovuti 2020-yildan beri sezilarli qisqargan. 2024-yilda u 5,5 foizdan (Farg‘ona shahri) 6,5 foizgacha (Buvayda, O‘zbekiston, So‘x, Furqat) o‘zgaradi. Shaharlarda ishsizlik tumanlarga nisbatan doimiy ravishda past. Iqtisodiy faollik esa aksincha, Farg‘ona (68,9%) va Qo‘qon (72,6%) shaharlarida eng past. Bu yerda nofaol aholining katta qismini talabalar tashkil etadi: Farg‘ona shahrida nofaol aholining 73,5 foizi ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta’lim oladi.

3-jadval.

Farg‘ona viloyati aholisining yirik yosh guruhlari bo‘yicha tarkibi (yil boshiga)

Yosh guruhi	2016-yil, ming kishi	Ulushi, %	2026-yil, ming kishi	Ulushi, %
0-15 yosh	1 017,2	29,0	1 339,9	31,7
16-59 yosh	2 238,9	63,9	2 436,1	57,7
60 yosh va undan katta	249,2	7,1	447,1	10,6
Jami aholi	3 505,3	100,0	4 223,0	100,0
16-59 yoshdagi 1000 kishiga to‘g‘ri keladigan boshqa yoshdagilar	566	–	734	–

Manba: Farg‘ona viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblandi [9].

So‘nggi o‘n yilda aholi tarkibida 16–59 yoshdagilar ulushi 63,9 foizdan 57,7 foizga kamaydi. Bolalar va keksalar ulushi esa ortdi. Natijada demografik yuk 1000 kishiga 566 dan 734 kishiga ko‘tarildi. 20-29 yoshli aholi soni 702,6 ming kishidan 563,8 ming kishiga (19,8 foiz) kamaygan. Bu 1990-yillar oxiri va 2000-yillar boshidagi tug‘ilishning nisbatan past darajasi bilan bog‘liq. Aksincha, 6-15 yoshli bolalar soni 588,2 ming kishidan 743,9 ming kishiga (26,5 foiz) ko‘paygan. Demak, 2030-yillar boshidan mehnat yoshiga kirib keladigan yoshlar oqimi keskin ortadi va yangi ish o‘rinlariga bo‘lgan talab yanada kuchayadi.

Olingan natijalar Farg‘ona viloyati mehnat bozorida miqdoriy muammodan sifat muammosiga o‘tish jarayoni kechayotganini ko‘rsatadi. 2018–2021-yillarda asosiy masala ochiq ishsizlikning yuqoriligi edi. Bugungi kunda esa ishsizlik darajasi 6 foiz atrofiga tushgan bo‘lsa-da, bandlikning sifati, ya’ni uning rasmiyligi, barqarorligi va daromadliligi asosiy muammoga aylandi. Bu holat K. Klark va J. Furastye nazariyasida tavsiflangan o‘tish bosqichiga mos keladi: qishloq xo‘jaligidan bo‘shayotgan ishchi kuchi sanoat va xizmatlarning rasmiy sektoriga to‘liq singib ulgurmayapti.

Viloyatda norasmiy bandlikning yuqoriligini quyidagi omillar bilan izohlash mumkin:

1. Demografik omil. Mehnat resurslarining yillik o‘sishi o‘rtacha 20–23 ming kishini tashkil etadi. Rasmiy ish o‘rinlarining yaratilish sur’ati bu o‘sishdan orqada qolmoqda.
2. Agrar ixtisoslashuv va mavsumiylik. Viloyat yer fondining asosiy qismi qishloq xo‘jaligi yerlaridan iborat. Dehqonchilik va tomorqa xo‘jaligidagi ishlar mavsumiy bo‘lib, aksariyat hollarda rasmiylashtirilmaydi. Shu sababli agrar tumanlarda norasmiy bandlik 50 foizdan oshadi.
3. Iqtisodiy faoliyatning shaharlarda markazlashuvi. Yirik korxonalar, davlat muassasalari, oliy ta’lim va moliya tashkilotlari asosan Farg‘ona, Qo‘qon va Marg‘ilon shaharlarida joylashgan. Natijada rasmiy ish o‘rinlari ham shu shaharlarda to‘plangan.
4. Rasmiy ish haqining pastligi. Qurilish, savdo va umumiy ovqatlanish kabi ko‘p ishchi kuchi talab qiladigan sohalarda rasmiy ish haqi viloyat o‘rtachasidan past. Bu xodimlar va ish beruvchilarni munosabatlarni rasmiylashtirmaslikka undaydi.
5. Tashqi mehnat migratsiyasi. Chetdagi yuqori daromad imkoniyati ichki mehnat bozoridagi bosimni kamaytiradi. Biroq u malakali yosh kadrlarning hududdan chiqib ketishiga ham sabab bo‘ladi.

Tadqiqotda aniqlangan hududiy qutblanish Farg‘ona-Marg‘ilon aglomeratsiyasi va Qo‘qon shahrining viloyat mehnat bozoridagi o‘rnini yaqqol ko‘rsatadi. Bu shaharlar atrofidagi tumanlar aholisi uchun mehnat mayatnik migratsiyasi markazlari vazifasini bajaradi. Ayni paytda viloyatning sharqiy va g‘arbiy chekka tumanlari (Furqat, Yozyovon, So‘x, O‘zbekiston) yirik shahar markazlaridan uzoqligi sababli rasmiy bandlik imkoniyatlari cheklangan hududlar bo‘lib qolmoqda.

Tadqiqot natijalari viloyat bo‘yicha avvalgi ishlarimizda olingan xulosalarni tasdiqlaydi [10; 11] va ularni yangi jihat bilan to‘ldiradi. Ilgari asosiy e’tibor mehnat resurslari soni va ishsizlik darajasiga qaratilgan bo‘lsa, mazkur maqolada bandlikning shakllari (rasmiy, norasmiy va tashqi) bo‘yicha hududiy tafovutlar birinchi marta tumanlar kesimida miqdoriy baholandi.

Xulosa va takliflar. O‘tkazilgan tahlil asosida quyidagi xulosalarga kelindi.

1. Farg‘ona viloyati respublikaning eng yirik mehnat salohiyatiga ega hududlaridan biridir. 2024-yilda mehnat resurslari 2 143,3 ming kishini tashkil etib, 2010-yilga nisbatan 17,5 foizga oshgan. Hududning kichikligi tufayli bir kvadrat kilometrga 317 nafar mehnat resursi to‘g‘ri keladi. Bu mehnat bozoriga doimiy yuqori bosimni yuzaga keltiradi.
2. Ochiq ishsizlik sezilarli kamaydi: ishsizlik darajasi 2020-yildagi 10,9 foizdan 2024-yilda 6,0 foizgacha pasaydi, ishsizlar soni 75 ming kishiga qisqardi. Hududlar o‘rtasidagi farq 1 foiz punktdan oshmaydi.
3. Viloyat mehnat bozorining asosiy muammosi bandlik sifatidir. Band aholining 44,9 foizi norasmiy sektorda, 10,4 foizi respublikadan tashqarida ishlaydi. Faqat 44,7 foizi rasmiy sektorda band.
4. Bandlik shakllari bo‘yicha keskin hududiy qutblanish mavjud. Farg‘ona shahrida rasmiy bandlik 82,9 foizni tashkil etsa, Buvayda, Bag‘dod, Uchko‘prik, Qo‘shtepa, O‘zbekiston va Quva tumanlarida band aholining yarmidan ko‘pi norasmiy sektorda ishlaydi. Beshariq, Toshloq, Farg‘ona va Quva tumanlarida tashqi mehnat migratsiyasi ulushi 14–17 foizga yetadi.
5. Iqtisodiy nofaol aholining yarmini bola parvarishi bilan band ayollar tashkil etadi. Bu viloyatdagi eng katta foydalanilmagan mehnat zaxirasidir.
6. Yosh tarkibidagi o‘zgarishlar demografik yukning 1000 kishiga 566 dan 734 ga oshganini ko‘rsatadi. 6-15 yoshli bolalar sonining 26,5 foizga ko‘payishi 2030-yillarda mehnat bozoriga kirib keluvchilar oqimi keskin ortishini bildiradi.

Mazkur xulosalar asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Norasmiy bandlik 50 foizdan yuqori bo‘lgan tumanlarda (Buvayda, Bag‘dod, Uchko‘prik, Qo‘shtepa, O‘zbekiston, Quva) qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, kooperatsiya va klasterlar orqali rasmiy ish o‘rinlarini yaratish ustuvor vazifa sifatida belgilanishi lozim. O‘zini o‘zi band qilgan shaxslar rejimini mavsumiy qishloq xo‘jaligi va qurilish ishchilariga kengaytirish, kunlik ishchilarni yollash uchun mahalla darajasida raqamli platformalar va “mehnat guzarlari” tashkil etish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Струмилин С.Г. Избранные произведения. Т. 1: Статистика и экономика. – Москва, 1963. – 488 с.
2. Becker G.S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. – New York: National Bureau of Economic Research, 1964. – 187 p.
3. Заславская Т.И. Социально-демографическое развитие сибирского села: региональный анализ. – 1985.
4. International Labour Organization. Resolution concerning statistics of the economically active population, employment, unemployment and underemployment, adopted by the Thirteenth International Conference of Labour Statisticians. – Geneva: ILO, 1982.
5. International Labour Organization. Women and Men in the Informal Economy: A Statistical Picture. – 3rd ed. – Geneva: ILO, 2018. – 156 p.
6. Abdurahmonov Q.X., Zokirova N.Q. Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi. – T.: Fan va texnologiya, 2013. – 536 b.
7. Soliyev A., Komilova N., Yanchuk S., Jumaxanov Sh., Rajabov F. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya. Darslik. – T.: Universitet, 2019. – 360 b.
8. Қодиров Р.Б. Фарғона минтақаси аҳолиси ва меҳнат ресурслари (монография). – Т.: Наврўз, 2016. – 168 б.
9. Farg‘ona viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari: www.farstat.uz sayti
10. Mirzatillayev J.Z., Abduvaliyev X.A. Farg‘ona viloyati aholisining hududiy tarkibi va demografik rivojlanish tendensiyalari // “Zamonaviy tadqiqotlar va barqaror rivojlanish” respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Farg‘ona, 2026-yil 4-avgust. DOI: 10.5281/zenodo.21743886.
11. Mirzatillayev J.Z. Farg‘ona viloyati mehnat resurslarining bugungi holati // “Zamonaviy tadqiqotlar va barqaror rivojlanish” respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Farg‘ona, 2026-yil 4-avgust. – B. 178–182. DOI: 10.5281/zenodo.21743884.